



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2023  
3-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**  
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир  
ўринбосари:**  
профессор **Д.Х.Асланова**

**Масъул котиб:**  
профессор **М.Қ.Пардаев**

**Муҳаррирлар:**  
**Ф.А.Сафаров**  
**Ш.З.Ўрозов**

**Техник муҳаррир:**  
**А.Н.Холиқулов**

**Корректор:**  
**С.А.Бабаназарова**

**Саҳифаловчи:**  
**Ҳ.Н.Очилова**

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.

**Таҳририят манзили:**  
140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,  
тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(66)233-17-88  
факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:  
samiservis@inbox.uz

**Таҳририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар  
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-  
тика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

**О.М.Мургазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори,  
иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва  
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ доценти, и.ф.д.

<b>Шермухаммад Бекмурод ўғли Омонов</b> Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг ривожланиш хусусиятлари ва тамойиллари	79
<b>Mohira Asqarboy qizi Umurova</b> Хизмат ko'rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda rivojlantirish istiqbollari	83
<b>Ислом Исмоилович Эргашев</b> Хизмат кўрсатиш корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг хусусиятлари	86
<b>Jahongir Aktamovich Haydarov</b> Transport xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish	91
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Илёс Султанович Абдуллаев, Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов</b> Минтақа туризмида соҳа корхоналарининг бошқариш сегментининг нисбий талаб-таклиф модели	97
<b>Dilmurod Abdullayevich Nasimov, Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova</b> Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	102
<b>Ruxshona Shavkatovna Rofeyeva</b> Samarqand shahri turizm infratuzilmagini rivojlantirishda yashil zonalar va bog'larning o'rni	105
<b>Shohista Bobobekovna Toyirova</b> Ekoturizm-global ekologik inqirozga qarshi innovatsion yechim	109
<b>Дилшод Мураткулович Абдураимов</b> Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятнинг ривожланиш хусусиятлари	113
<b>Умиджон Рахимович Матякубов, Расулбек Кочкарбай ўғли Исаков</b> Хива ва Боғот туманларида туризмни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўллари	118
<b>Дониёр Журакулович Абдуразаков</b> Қишлоқ туристик ресурсларини таснифлаш ва бошқаришнинг амалий масалалари таҳлили	122
<b>Dilrabo Shirinboyevna Mardonova</b> Mamlakatimizda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlash	126
<b>Амриддин Ҳамдам ўғли Ҳамдамов</b> Туризм соҳасида юқори сифатли хизмат кўрсатиш учун рақамли технологиялардан фойдаланишни баҳолашнинг услубий асослари	131
<b>Зебинисо Бахтиёровна Навруз-зода</b> “КРП” воситасида муқаддас жойларнинг зиёрат кластербоплик даражасини баҳолаш	135
<b>Сирожиддин Шерали ўғли Халилов</b> Миллий туризм тармоғида рақобат муҳити ва унинг таркибий элементлари	140
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева, Шухрат Облокулович Кувандиқов</b> Миллий иқтисодиётда оилавий тадбиркорликнинг ўзига хос функциялари	145
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Raxmatillo Mirolimovich Egamov, Sherzod Norboyevich Jumanov, Alisher Zokirovich Saydirasulov</b> Innovatsion tadbirlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari	149

**Dilmurod Abdullayevich Nasimov** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, i.f.d.,

**Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova** – Samarqand davlat universiteti dotsent v.b., PhD

## TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada respublikamizda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, uning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligi va aholining farovon yashash darajasini yanada oshirish bo‘yicha ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatni ko‘paytirish va takomillashtirish shuningdek turizm industriyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

**Tayanch so‘zlar:** turistik xizmatlar bozori, turizm industriyasi va infratuzilmasi, turizm marketingi, turistik maxsulotlar, xalqaro turizm.

**Kirish.** Bugungi kunda respublikamizda turistik korxonalarining samarali rivojlanishi, ularning xizmat ko‘rsatish intensivligi va samaradorligini oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat berilmoqda. Turizm sohasiga taaluqli xizmatlar bozori har qanday davlatning milliy iqtisodiyotini rivojlanish modeliga bog‘liq holda rivojlanadi hamda ushbu modelning asosiy qismini tashkil etadi. Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o‘z milliy modeli bo‘lgani kabi, O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasi bugungi kunda milliy rivojlanish xususiyatlari respublika turizm industriyasi va infratuzilmasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi tarixiy va madaniy meros obyektlar, milliy azaliy qadriyatlarini qayta tiklash, mamlakatimizning boy ma‘naviy va tabiiy-geografik imkoniyatlaridan samarali foydalanish turizm sohasining milliy rivojlanish modelini shakllantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi respublikaning turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, uning tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligi va aholining farovon yashash darajasini yanada oshirish bo‘yicha ijtimoiy va iqtisodiy salohiyatni ko‘paytirish va takomillashtirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishishda turizm industriyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olish alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:** Ushbu mavzuda iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardayev, A.A.Eshtayev, N.Tuxliyev, A.N.Norchayev, O.M.Xamidov, I.S.Tuxliyev, M.R.Boltaboyev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, Ye.V.Golisheva va boshqalarning tadqiqotlari hamda ilmiy asarlarida turizmga oid muhim, xususan, ushbu sohani tartibga solish masalalari yoritib berilgan.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy beqarorlik sharoitida turizm va rekreatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy holati bilan bog‘liq ba‘zi masalalar, zamonaviy muammolar yangi tadqiqotlarni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turizm va rekreatsiya sohasini tashkil etish va faoliyati bilan bog‘liq umumiy masalalar ko‘plab olimlarning ishlarida ko‘rib chiqilgan, tadqiq qilingan. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, guruhlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar:** Bugungi kunda mamlakatimiz turizm sohasini o‘sib taraqqiy etishini yanada rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri – kuchli raqobat muhitida xalqaro turizm bozoriga integratsiyalashish, raqobatbardosh turistik mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish, sohada marketing tadqiqotlarini samarali yo‘lga qo‘yish hamda turizm industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi. Marketing tadqiqotlarini amalga oshirish sayyohlarning talabi va ehtiyojlarini to‘liq qondirishga yo‘naltirilgan turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni nazarda tutadi. Turizm marketingi xalqaro darajada sohaning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olinishini zarurat etadi:

□ xalqaro turizm sohasida bir-birini o‘rmini to‘ldiruvchi raqobatdosh mahsulotlarning keragidan ortiq ko‘pligi va xilma-xil ekanligi;

□ aholining daromadlari va turmahsulotlar bahosi o‘zgarishining talab va taklif miqdoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi;

□ turistik xizmatlar bozoridagi talabga noiqtisodiy omillarning yuqori darajada kuchli ta‘sirga ega ekanligi;

□ turistik mahsulotlar va xizmatlarga talabning mavsumiy tavsifga egaligi va boshqalar.

Turizm industriyasi rivoji, avvalambor, marketing tadqiqotlariga bogʻliqdir. Marketing tadqiqotlari asosida drayver yoʻnalishlarini belgilab olib ushbu yoʻnalishlarni raqobat ustunliklarini rivojlantirish talab etiladi. Marketing faoliyati natijasida milliy turistik brendni xorijiy davlatlarda targʻib qilish, milliy qadriyatlarni namoyish etish va qiziqarli tabiiy va madaniy merosni namoyon etish koʻzda tutiladi.

Shuning uchun, bir tomondan, huquqiy-meʼyoriy, statistik, oʻquv-uslubiy, dasturlar, reklama-axborot hamda tijorat tavsifidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga qamrab oluvchi turizm sohasini rivojlantirishning axborot bazasini shakllantirish, ikkinchi tomondan, mamlakatimizda turistik jozibador hisoblangan mintqa sifatida tashviqot-targʻibot ishlarini olib borish, jahon turizm bozorida mamlakatning turistik jozibadorligi boʻyicha obroʻsini oshirishga yoʻnaltirilgan samarali reklama kompaniyalarini realizatsiya qilish talab qilinadi. Reklama kompaniyasini amalga oshirish turli xil xorijiy tillarda respublikamiz haqida reklama materiallarini kengroq targʻib qilish ishlarini tashkil etish, Sharqning sirli afsonalari haqida maxsus maʼlumot manbalari va sharqona milliy ruhda tayyorlashni va keng koʻlamda chop ettirish lozim.

Turli xorijiy tillarda Vatanimiz toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan maxsus Internet portali tashkil etish ham mamlakatimiz turistik salohiyati toʻgʻrisidagi axborotlarni tarqatishga muayyan darajada ijobiy taʼsirga ega boʻladi. Uning muhim jihati mustaqil maʼlumotlarni yangilab boruvchi turizmning mintaqaviy tashkilotlarini sahifalari keltirilishi zarur.

Tahlillar natijasiga koʻra respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari sifatida quyidagilar belgilanishi lozim:

- turizm rivojiga toʻsiq boʻluvchi omillarni aniqlash;
- turistik korxonalar rivoji uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- respublikamiz buyuk tarixi va joylashuvidan kelib chiqib, ziyorat turizmi sport va sogʻlomlashtirish turizmi, agroturizm, oilaviy turizmni keng miqyosda rivojlantirish;
- turizm sohasiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etishni ragʻbatlantirish;
- raqobatbardosh turistik mahsulotlarni yaratish, hududlar imkoniyatlaridan kelib chiqib mavjud salohiyatdan yuqori foydalangan holda yangi turistik yoʻnalishlarni koʻpaytirish, shu bilan birga ularni xalqaro turizm bozorlari bilan integratsiyalashuvini amalga oshirish;
- turizm sohasiga malakali, tajribali mutaxassislar tayyorlashni tizimli takomillashtirish;
- mamlakatimiz turistik korxonalarini xalqaro turizm tashkilotlar bilan integratsiyasini hamkorligini takomillashtirish, turizm sohasiga chet el investitsiyalari va xalqaro kreditlarni koʻproq jalb qilish;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oʻzbek milliy turistik mahsulotlari taqdimotini kengroq koʻlamda oʻtkazib borish va xalqaro yarmarkalarda muntazam ishtirok etish;
- madaniy sayrlar va milliy tomoshalar boʻyicha zamonaviy talablarga mos industriyani yaratish;
- aeroportlar, temiryoʻl vokzallari, avtobuslar va jamoat transporti turargohlarida xalqaro terminallar tashkil etish, turistlarni qabul qilish markazlarida AKTlarini zamonaviy koʻrinishda yaratish.

Bizning fikrimizcha, tadbirkorlar, hokimiyat va mahalliy jamoatchilik oʻrtasida mavjud oʻzaro munosabatlar tahliliga koʻra, ushbu munosabatlarni takomillashtirish boʻyicha quyidagi chora-tadbirlarni taklif etish mumkin:

1) turizm bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlarga motivatsiya berish hamda ijtimoiy sherikchilik tizimidan kelib chiqib, davlat mahalliy va hududiy boshqaruv organlari bilan oʻzaro hamkorlikni amalga oshirish.

2) yirik biznesning ijtimoiy manfaatlari matritsasiga muvofiq, hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar guruhlarini manfaatlarini hisobga olish va kichik biznes vakillarini ham jalb qilish yoʻllarini topish;

3) biznes (mulkdorlar, menejerlar), hokimiyat (mahalliy hokimiyat, boshqarmalar) va ijtimoiy tuzilmalar oʻrtasida teng sheriklikni saqlash.

4) davlat, turizm va rekreatsion tadbirkorlik oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar konsepsiyasini ishlab chiqish.

Har bir alohida holatda, har bir hududda hokimiyat va biznes tuzilmalarining oʻzaro taʼsiri hokimiyatlar va mahalliy jamoatchilik holati va imkoniyatlariga bogʻliq boʻlib, individual

yondashuvni talab qiladi. Muayyan hududda biznes va hukumat o‘rtasidagi munosabatlarning «namunaviy loyihalari», shu jumladan sanab o‘tilgan va ba’zi hokimiyatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan chora-tadbirlar, keyinchalik boshqalarda qo‘llanilishi mumkin. Hududiy rivojlanish amaliyotida davlat organlari va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarning eng yaxshi modellaridan foydalanish kompaniyalarning biznes strategiyasi bilan butun mamlakat bo‘ylab hukumat subyektlari va mahalliy jamoatchilikning manfaatlari o‘rtasida muvozanatga erishishga, ijobiy o‘zgarishlar potensialini oshirishga imkon beradi.

Respublika darajasida umumiy ustuvorliklar va parametrlar belgilanadi, barcha hukumat vakolatlari doirasidagi vositalar nazarda tutiladi va realizatsiya qilinadi. Hududiy darajada ustuvorliklar belgilangan parametrlar va mahalliy xususiyatlarga muvofiq tanlanadi. Biznesni ijtimoiy muammolarini hal qilish va hudud subyektlarining strategik ustuvorliklariga erishishga jalb qilish uchun mahalliy hokimiyat organlarining vositalari va tashabbuslari ishlab chiqilishi zarur.

**Xulosa va takliflar.** Amaliy nuqtayi nazardan, hokimiyat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro samarali munosabatlarni rivojlantirishning muhim sharti – barcha tomonlarni aniq belgilangan manfaatlarining mavjudligi. Davlat tomonidan turizm sohasiga bo‘lgan qiziqishi, turistik va rekreatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Turizm sohasining rivoji davlat uchun ham katta ahamiyatga egadir, chunki, milliy turizmning rivojlanishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- ish bilan bandlar soni oshishiga olib keladi;
- yalpi hududiy mahsulot ortishiga va unda turizmning ulushi oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, hududning ko‘rinishi rivojlanishiga, transport tizimi yaxshilanishiga, aholining turmush darajasi oshishi va boshqalarga olib keladi. Hokimiyat yodgorliklarni tiklash, muzeylar va istirohat bog‘larini ochish, sayyohlarni jalb qilish maqsadida dasturlarni ishlab chiqishi zarur. Turizm uchun o‘shish nuqtalari bo‘lgan joylar, agar ular hukumat tomonidan ilmiy rejalashtirilgan bo‘lishi kerak bo‘lgan sohaning barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilsalar, katta foyda olishlari mumkin.

Tadbirkorlik subyektlarining hokimiyat bilan o‘zaro munosabatlariga bo‘lgan qiziqishi an’anaviy ravishda davlatga tegishli bo‘lgan sohalardagi loyihalarga kirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, davlat kafolati ostida uzoq muddatli investitsiyalarni kiritish, loyiha xavfini davlat bilan taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017.
2. Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. – T.: «Barkamol fayz mediya» nashriyoti, 2018-yil, – 412 b.
3. Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. // Monografiya. «Zarafshon» nashriyoti. 2017. – 300 b.
4. Safarov B.Sh. Milliy turizm bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2016. – 184.
5. Maxmudova M.R. Turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalish, vositalari va usullari. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» jurnali // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, №3, 2021. 398-b

<p><b>Д.Насимов, М.Махмудова</b></p> <p><b>Основные направления устойчивого развития туризма</b></p> <p><b>Аннотация:</b> В данной статье рассматриваются развитие рынка туристских услуг в нашей республике, его конкурентоспособность на внешнем и внутреннем рынках, повышение и совершенствование социально-экономического потенциала, а также основные направления развития туристической отрасли.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> рынок туристических услуг, индустрия и инфраструктура туризма, туристический маркетинг, туристический продукт, международный туризм.</p>	<p><b>D.Nasimov, M.Makhmudova</b></p> <p><b>Main directions of sustainable development of tourism</b></p> <p><b>Abstract:</b> This article discusses the development of the tourism services market in our republic, its competitiveness in the foreign and domestic markets, the increase and improvement of the socio-economic potential, as well as the main directions for the development of the tourism industry.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism services market, tourism industry and infrastructure, tourism marketing, tourism product, international tourism.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023